# QUVASOY ISSIQXONALARIDA YETISHTIRILGAN MAHSULOTLAR ROSSIYAGA EKSPORT QILINMOQDA

“Vodiy agro world” MCHJ tomonidan Quvasoy shahridagi Bog‘bon MFY da 2020 yilda 1,2 ga maydonda issiqxona faoliyati amalga oshirilgan edi.

Tadbirkorning o‘z mablag‘i hamda bank krediti hisobidan boshlangan qiymati 200 mln dollar bo‘lgan loyihaga ko‘ra, ayni kunda 15 nafar ishsiz aholi bandligi ta’minlangan.

Mavsumda 40 tonnadan ziyod mahsulot olishni reja qilgan tadbirkor eksportyorlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan va hozirda pomidorlar Rossiyaga eksport qilinmoqda.

E’tiborlisi, bugungi kun talabidan kelib chiqib mavsum davomida ko‘mir yoqilg‘isidan foydalangan holda mahsulot yetishtirilmoqda. Tadbirkor o‘z faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlarini ko‘rmoqda.

Бизни ижтимоий тармоқларда кузатинг Facebook,
2023-12-04 09:28:32